

DAVLAT MOLIVASI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ICHKI VALYUTA
BOZORINI AHAMIYATI

Xudoyberganov Hurmatjon Egambergan o'g'li

TDIU "Davlat moliyasi va xalqaro moliya" yo'nalishi magistranti

Annontatsiya: *Mazkur maqolada davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda ichki valyuta bozorining ahamiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, bugungi holati tahlili va uning amaldagi muammolari va ularni hal qilish yo'llari, ushbu siyosatning vositalari, moliyaviy tizimning rivojlanishi va boshqa ko'plab muhim masalalar bilan birga O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda valyuta siyosatini amalga oshirishning imkoniyatlari keng o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *davlat moliyasi, valyuta bozori, milliy valyuta, pul muomilasi, banklar, inflatsiya, Markaziy bank, targetlash rejimi.*

Kirish

Milliy valyuta kursini shakllantirishning bozor tamoyillarini joriy etgan holda ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish borasidagi amaliy qadamlar bu yo'nalishdagi asosiy qarorlardan biri bo'ldi. Valyuta kursining butunlay yangi tartibi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tibori va sa'y-harakatlarini faqat ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratib, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish uchun zarur zamin yaratadi.

Boshqa tomondan, valyutani liberallashtirish jarayonining muvaffaqiyatli yakunlanishi va bu islohotlarning orqaga qaytarilmasligi ko'p jihatdan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining samaradorligi, shuningdek, tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va bank faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari bilan belgilanadi.

Tahlil va natijalar

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valyuta barqarorligini ta'minlash hisoblanadi.¹

Bunda "milliy valyuta barqarorligi" tushunchasini ikki xil, ya'ni almashuv kursining xorijiy valyutalarga nisbatan barqarorligi yoki uning ichki xarid qobiliyati barqarorligi deb talqin qilish mumkin. Almashuv kursining erkin shakllanishi sharoitida milliy valyutaning barqarorligi uning ichki harid qobiliyatini saqlash orqali erishiladi.

Bunda, erkin suzib yuruvchi almashuv kursi iqtisodiyotni ichki barqarorlashtiruvchi funksiyasini bajaradi. Boshqacha qilib aytganda, to'lov balansi bilan bog'liq tashqi shok va qiyinchiliklar kuzatilganda almashuv kursining mos ravishda o'zgarishi ekportyorlar va import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda kun tartibida davlat moliyasining barqaror rivojlanishi masalalari ko'proq ko'tarilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, postindustrial jamiyat, globallashtirish va jahon bozorining rivojlanishi davrida milliy iqtisodiyot murakkab dinamik tizimni tashkil etuvchi juda ko'p sonli omillar ta'sirida qolmoqda. O'z o'rnida, davlat moliyasini barqarorligini

¹ <https://lex.uz/acts/-72266>

ta'minlashda pul-kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu siyosat, mamlakatning moliyaviy tizimini rivojlantirish, moliyaviy iste'molni boshqarish, yangi ish o'rinlari yaratish va boshqa ko'plab maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlashda yordam beradi.

Valyuta kursini targetlash rejimi milliy valyuta ayirboshlash kursini past va barqaror inflyatsiya darajasiga ega rivojlangan davlatlar valyutasiga bog'lashni nazarda tutadi. Shuningdek, valyuta kursini targetlashning milliy valyuta ayirboshlash boshlash kursini asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalari savatchasiga nisbatan kursi tebranishi mumkin bo'lgan gorizont va shartli koridorlarni o'rnatish hamda real etlash kabi turlari ham mavjud.

Valyuta kursini targetlash rejimi iqtisodiyoti eksport, ayniqsa, xom-ashyo tovarlari eksportiga bog'liq bo'lgan, shuningdek, iste'mol savatida import tovarlari yuqori ulushni tashkil qilgan mamlakatlarda faol qo'llaniladi.

Mazkur rejim iqtisodiy inqiroz kuzatilgan davrlarda inflyatsiya darajasini tez va samarali pasaytirish imkonini beradi. Bunda pul-kredit siyosati faqatgina ayirboshlash kursining maqsadli darajasini ta'minlashga yo'naltiriladi. Jumladan, valyuta kursi qadrsizlanganda qat'iy pul-kredit siyosati, valyutaning qadri maqsadli darajadan ko'proq oshganda yumshoq pul-kredit siyosati yuritiladi.

Valyuta kursini targetlash rejimi aniqligi va oddiyliги sababli aholi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari va bozorning boshqa ishtirokchilari tomonidan oson tushuniladi. Mazkur rejimning yana bir ijobiy tomoni moliyaviy institutlar yaxshi rivojlanmagan sharoitlarda ham u o'zining samaradorligini saqlab qoladi. Bunday vaziyatda valyuta kursiga pul-kredit siyosati choralari va valyuta intervensiyalari orqali ta'sir ko'rsatiladi. Shu bilan birga, kapital oqimlari kuchli bo'lgan davrlarda ushbu rejimni samarali qo'llash imkoniyati cheklanadi va iqtisodiy inqiroz davrida markaziy bankning valyuta kursini barqarorlashtirish borasidagi vazifasini qiyinlashtiradi.

Valyuta kursini targetlash rejimini qo'llanishi quyidagi shart sharoitlar bilan chambarchas bog'liq valyuta kursining maqsadli ko'rsatkich doirasida bo'lishini ta'minlashda markaziy banklarning imkoniyati oltin-valyuta zaxiralarining hajmiga bog'liq bo'ladi. Zaxiralarning yetarlicha bo'lmasligi valyuta kursining qadrsizlanishiga olib keladi, bu esa keyingi davrlarda ham devalvatsion va inflyatsion kutilmalarni oshiradi.

Bu, o'z navbatida, import narxlarining oshishiga hamda ichki valyuta bozorida o'rnatilishi natijasida iqtisodiyotda xufyona valyuta bozori va turli ayirboshlash kurslarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi milliy valyuta ayirboshlash kursining bir necha marta rejali devalvatsiyasi amalga oshirilganda, devalvatsion va inflyatsion kutilmalarning kuchayishi oqibatida inflyatsiya darajasi oshishi xatari yuzaga keladi nominal ayirboshlash kursi qat'iy belgilanadigan sharoitda real ayirboshlash kursining oshishi to'lov balansining yomonlashishiga va iqtisodiyotda devalvatsion xatarlarning ortishiga olib keladi narxlar darajasi va ayirboshlash kursiga bo'lgan bosimning kuchayishi markaziy banklarning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi imkoniyatiga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqaradi. Mazkur sharoitda barqarorlikni ta'minlashga foiz stavkalarining oshirilishi orqali erishiladi. Bu esa o'z navbatida, iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Ichki valyuta bozori 2022-yilda chet el valyutasiga bo'lgan talabning ortishi hamda qulay tashqi bozor konyunkturasi va iqtisodiy o'sishning yuqori ko'rsatkichlari fonida taklifning ham o'sishi bilan xarakterlandi.

2022-yil davomida tashqi savdo aylanmasining jadallashishi kuzatildi. Xususan, eksport tushumlari hajmi (oltin eksportini hisobga olmaganda) o'tgan yilga nisbatan 29.5 foizga o'sib, 15 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Shuningdek, import to'lovlari o'tgan yilga nisbatan 20 foizga oshib, 30.6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.²

Ichki valyuta bozorida chet el valyutasiga bo'lgan talabning umumiy hajmi 2022-yilda 36.6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, 2021 va 2019-yillarning tegishli davrlariga nisbatan mos ravishda 1,4 va 1,7 barobarga oshdi.³

Bunda yuridik shaxslar tomonidan chet el valyutasiga bo'lgan talab 2022-yilda 2021-yilga nisbatan 1,3 barobarga oshib, 27,7 mlrd dollarini tashkil etgan bo'lsa, jismoniy shaxslarning chet el valyutasiga bo'lgan talabi 8,9 mlrd dollarni tashkil qilgan (2021-yilda 4,6 mlrd doll.).

Qayd etish joizki, yuridik shaxslar tomonidan ichki valyuta bozorida chet el valyutasining asosiy qismi (56,6 foiz) ishlab chiqarish uchun asbob-uskunalar, tovarlar va xomashyo importi, 18,8 foizi xorijiy kreditlarni so'ndirish, 20,8 foizi xalq iste'moli tovarlari va dori-darmon mahsulotlari importi, 2.1 foizi xorijiy investorlar daromadlarining repatriatsiyasi va qolgan 1,7 foizi boshqa maqsadlar uchun xarid qilingan

Shuningdek, hisobot davrida jismoniy shaxslar tomonidan tijorat banklariga sotilgan chet el valyutasi miqdori 11,9 mlrd dollarni tashkil etgan.

2022-yil davomida tashqi savdo aylanmasining jadallashishi kuzatildi. Xususan, eksport tushumlari hajmi (oltin eksportini hisobga olmaganda) o'tgan yilga nisbatan Ichki valyuta bozorida chet el valyutasidagi umumiy taklif hajmi 2021-yilda 22,9 lrd. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,6 barobarga o'sdi (2020-yilda - 14,3 mlrd. AQSh doll., 2019 yilda - 11,7 mlrd. AQSh doll.). Xususan, mazkur davrda:

Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan 11,0 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi chet el valyutalari sotilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 1,7 barobarga oshdi (2020-yilda - 6,7 mlrd. AQSh doll.); banklar va jismoniy shaxslar tomonidan sotilgan chet el valyutalari miqdori 7,4 mlrd. AQSh dollarini yoki o'tgan yilga nisbatan 44 foizga ko'p bo'ldi (2020-yilda - 5,1 mlrd. AQSh doll.).⁴

Valyuta kursini targetlash rejimi milliy valyuta ayirboshlash kursini past va barqaror inflyatsiya darajasiga ega rivojlangan davlatlar valyutasiga bog'lashni nazarda tutadi.

Shuningdek, valyuta kursini targetlashning milliy valyuta ayirboshlash kursi tebranishi mumkin bo'lgan gorizont va shartli koridorlarni o'rnatish hamda real ayirboshlash kursini asosiy savdo hamkor davlatlar valyutalari savatchasiga nisbatan targetlash kabi turlari ham mavjud.

Mazkur rejim iqtisodiy inqiroz kuzatilgan davrlarda inflyatsiya darajasini tez va samarali pasaytirish imkonini beradi. Bunda pul-kredit siyosati faqatgina ayirboshlash kursining maqsadli darajasini ta'minlashga yo'naltiriladi. Jumladan, valyuta kursi qadrsizlanganda qat'iy pul-kredit siyosati, valyutaning qadri maqsadli darajadan ko'proq oshganda yumshoq pul-kredit siyosati yuritiladi.

² <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/33839-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2022-yil-yanvar-dekabr-2>

³ <https://cbu.uz/uz/statistics/dks/>

⁴ <https://cbu.uz> sayti malumotlari asosida tayyorlandi

Valyuta kursini targetlash rejimi iqtisodiyoti eksport, ayniqsa, xom-ashyo tovarlari eksportiga bog'liq bo'lgan, shuningdek, iste'mol savatida import tovarlari yuqori ulushni tashkil qilgan mamlakatlarda faol qo'llaniladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki bugungi kunda iqtisodiyot jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtida 2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu yo'nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'ldi.

Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalanilishi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Milliy valyuta kursini shakllantirishning bozor tamoyillarini joriy etgan holda ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish borasidagi amaliy qadamlar bu yo'nalishdagi asosiy qarorlardan biri bo'ldi. Valyuta kursining butunlay yangi tartibi, o'z navbatida, Markaziy bankning asosiy e'tibori va sa'y-harakatlarini faqat ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashga qaratib, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish uchun zarur zamin yaratadi.

Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR». Toshkent-2012. 636-
2. Мадина Гайфулина./специалист департамента. Оценка эффективности операционного механизма денежно-кредитной политики. Тошкент. 2021
3. Mayexl N., Monetar siyosatni qo'llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild./2000-yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Farmoni,01.08.1997-yildagi PF-1827-son.
6. <https://www.ebsco.com>.(EBSCO Information Services).
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Davlat_moliyasi/
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Pul-kredit_siyosati/
9. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/>
10. https://banki.ru/wikibank/denejno-kreditnaya_politika/
11. <https://lex.uz/docs/264548>
12. <https://lex.uz/acts/-72266>